

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
FARMAKOLOGIYA, KLINIK FARMAKOLOGIYA VA TIBBIYOT
BIOTEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**



**FARMAKOLOGIYA
FANINING O`QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910000 - Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishlari: 60910200 - Davolash ishi

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi Farmakologiya FR15606	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	Kreditlar – 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus/ingliz		Xaftadagi dars soatlari 3	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Farmakologiya	90	90	180

2 I. Fanning mazmuni.

Fanning o'qitishdan maqsad – UASH tayyorlash jarayonida zamonaviy farmakologiyaning yutuqlari asosida talabalarda materialistik dunyoqarashni shakllantirish, dori vositalarining guruhlarini, ularning ta'sir mexanizmlarini, yoshga qarab terapevtik miqdorlarini, dori shakllariga retseptlar yozishni, kiritish yo'llarini, kasalliklarda qo'llanilishiga doir ko'rsatmalarini, nojo'ya ta'sirlarini va qo'llash mumkin bo'lmagan holatlarni o'rgatish, olingan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Fanning vazifalari: Oila shifokorlariga turli kasalliklarni davolash va oldini olishda ishlatiladigan dori vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni berishdan iborat. Fanning umumiy retseptura bo'limida dori moddalarning shakllari, tayyorlanishi va retsept yozishning qonun-qoidalarini o'rgatish, umumiy farmakologiya bo'limida dori moddalarning farmakokinetika va bo'limida nerv tizimiga, ijrochi a'zolarga, metabolizmga ta'sir etuvchi, mikroorganizmlarga va o'smalarga qarshi bo'lgan moddalar farmakologiyasini o'rgatishdir. Dori vositalar bilan zaharlanishlarda yordam choralari qo'llay bilishni va amaliyotda ulardan foydalana olishni, bolalarda dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasining turli omillar ta'sirida o'zgarishini o'rgatish, shuningdek, O'zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanish tarixi va farmakolog olimlarning erishgan yutuqlari bilan tanishtirishdan iborat.

Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

5 semestr yakunida:

Talaba:

- dori vositalarining tasnif guruhlarini,
- guruhlarga kiradigan dori vositalarining nomlari,
- ta'sir mexanizmi, ta'sir turlari,
- yoshga nisbatan alohida ko'rsatmalari, dori vositalaridan zaharlanganda

ko'rsatiladigan yordam chora-tadbirlari va usullari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- umumiy retsepturaning asosiy qonun-qoidalarini,
- har xil shakldagi (suyuq, yumshoq, qattiq va ingalyasion) dori shakllariga retsept yoza olish,
- dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi asoslarini,
- dori vositalarining qo'llashga oid ko'rsatmalari,
- nojo'ya ta'sirlari va qo'llashga qarshi ko'rsatmalarini,
- dori vositalarining yangi analoglarini,
- dori vositalar bilan o'tkir zaharlanish belgilari,
- dori vositalarini tasniflash,
- periferik nerv sistemasiga ta'sir etuvchi dori vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi, qo'llash uchun ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, ularga retsept yozish qoidalarini bilish,
- markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi dori vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi, qo'llash uchun ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, ularga retsept yozish qoidalarini bilish,
- farmakoterapevtik guruh preparatlarini qiyosiy baholash hamda nojo'ya ta'sirlarining oldini olish tadbirlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- dori moddalarning faolligini,
- ularning farmakologik xususiyatlari,
- ta'sir mexanizmini hisobga olgan holda tahlil qila olishi,
- dori vositalarning guruhlarini to'g'ri aniqlash,
- dori vositalarini bemorning yoshiga qarab dozalash,
- dori vositalarini kiritish yo'llarini aniqlash,
- vaziyatli masalalarda dori vositalarni to'g'ri tanlash va terapevtik ta'sirini aniqlay bilish,
- retsept yozishning qonun-qoidalarini o'zlashtirish,
- har xil dori vositalarining turli shakllariga retsept yoza bilish va ularni tayyorlash kabi **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

6 semestr yakunida:

Talaba:

- ijrochi a'zolarga, metabolizmga ta'sir etuvchi, mikroorganizmlarga va o'smalarga qarshi bo'lgan moddalar farmakologiyasini o'rgatishdir. Dori vositalar bilan zaharlanishlarda yordam choralari qo'llay bilishni va amaliyotda ulardan foydalana olishni **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;

- ijrochi a'zolarga, metabolizmga ta'sir etuvchi, mikroorganizmlarga va o'smalarga qarshi bo'lgan moddalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- umumiy retsepturaning asosiy qonun-qoidalarini, har xil shakldagi (suyuq, quyuq, yumshoq, qattiq va in'eksiyalar) dori vositalarini bemorning yoshiga qarab miqdorlash, dori moddalarning yuborish yo'llarini aniqlash, vaziyatli masalalarda dori moddalarni to'g'ri tanlash va terapevtik ta'sirini aniqlash, retsept yozishning qonun-qoidalarini bilish, har xil dori vositalarining turli shakllariga retsept yoza olish va ularni tayyorlash kabi amaliy *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

II. Asosiy qism

Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

T.t.	Ma'ruza mavzui	Ma'ruza mazmuni
No		

V- SEMESTR UCHUN

- | | | |
|---|---|---|
| 1 | Umumiy farmakologiya. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi. | Farmakologiya faniga kirish, uning tarixi. O'zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan farmakologlar. Yangi dori vositalarni yaratishning asoslari. Dori moddalarning farmakokinetik parametrlari: kiritish, taqsimlanish, parchalanish va chiqarish yo'llari. Dori moddalarning farmakodinamikasi. Dori moddalar ta'sir qilishining asosiy turlari. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasiga ta'sir etuvchi omillar. Dozalarning turlari, terapevtik ta'sir kengligi. Moddalar ta'siriga jins, yosh va genetik omillarning ta'siri. Farmakologik ta'sir samaradorligining organizmning patologik holatiga bog'likligi. Dori moddalarining ta'sir turlari. Dori moddalari organizmga qayta kiritilganda ta'sirining o'zgarishi. Dori moddalarning aralash ta'siri. Dori moddalar birgalikda kiritilganda kuzatiladigan o'zgarishlar. |
| 2 | Efferent innervatsiya. M-, Xolinergik sinapslarga ta'sir etuvchi dori vositalar. Adrenergik | M-, N-xolinomimetik vositalar. M-, N-xolinoblokator vositalar. Xolinesterazaga qarshi vositalar. M-xolinomimetiklar. M-xolinoblokator vositalar. Ularning ta'sir qilish mexanizmlari, farmakologik |

sinapslarni ta'sir etuvchi dori vositalar. xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati. Fosfororganik birikmalar (FOB) va atropinsimon moddalardan o'tkir zaharlanish va unda ishlatiladigan dori vositalar hamda bajariladigan chora-tadbirlar. N-xolinomimetik vositalar. N-xolinoblokator vositalar: ganglioblokatorlar. Periferik ta'sirli miorelaksantlar. Ularning tasniflanishi va ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Anesteziologiya va reanimatsiyada qo'llanilishi. Nikotindan zaharlanish. Unda ishlatiladigan dori vositalari xamda bajariladigan chora-tadbirlar. α -, β -adrenomimetik vositalar. Asosan α -adrenoretseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar (α -adrenomimetiklar). Asosan β -adrenoretseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar (β -adrenomimetiklar). Ularning ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari qo'llashga qarshi ko'rsatmalar. α -adrenoretseptorlarni bloklovchi vositalar. β -adrenoretseptorlarni bloklovchi vositalar. α - va β -adrenoretseptorlarni bloklovchi vositalar. Simpatomimetiklar. Simpatolitiklar. Ularning ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati.

- 3 Narkoz chaqiruvchi vositalar. Etil spirti. Uxlatuvchi vositalar. Tutkanoqqa va parkinsonizmga qarshi vositalar. Narkoz uchun ishlatiladigan moddalarning ochilish tarixi. Narkoz xolatining umumiy tavsifi. Narkoz uchun moddalarni berish yullari asosida tasnifi. Narkoz nazariyalari. Narkoz uchun moddalarning ta'sir kengligi. Ingalyasion va noingalyasion narkoz chaqiruvchi moddalarning nisbiy tavsifi. Qo'llashga va ta'qiqlashga ko'rsatmalar. Narkoz chaqiruvchi moddalarga retseptlar yozish. Etil spirti. Uxlatuvchi vositalar: benzodiazepin va melatonin retseptorlarining agonistlari. Ularning

tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati. Etil spirti bilan o'tkir va surunkali zaharlanishda ishlatiladigan dori vositalari hamda bajariladigan chora-tadbirlar. Katta va kichik tutqanoqlar. Mioklonus tutqanoq xamda ruxiy ekvivalentlarda epilepsiyaga qarshi dorilarning ta'sir qilish mexanizmi. Epilepsiyaga qarshi dorilarning qo'shimcha ta'siri, asoratlari. Parkinsonizmda ishlatiladigan dorilar ta'sir mexanizmi. Qo'shimcha ta'sirlari, asoratlari. Tutqanoqqa qarshi va parkinsonizmni davolashda ishlatiladigan dorilarni qo'llashga ko'rsatma va ta'qiqlar.

4 Og'riq qoldiruvchi vositalar.

Markaziy ta'sirli og'riq qoldiruvchi vositalar (narkotik analgetiklar). Opioid retseptorlar agonistlari. Opioid retseptorlarning agonistantagonistlari. Markaziy ta'sir etuvchi noopioid og'riq qoldiruvchi vositalar. Turli guruhga mansub og'riq qoldiruvchi vositalar. Aralash ta'sir mexanizmiga (opioid + noopioid) ega og'riq qoldiruvchi vositalar. Morfin bilan o'tkir va surunkali zaharlanishda ishlatiladigan dori vositalari hamda bajariladigan chora-tadbirlar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar, tibbiyotdagi ahamiyati.

5 Neyroleptiklar.
Trankvilizatorlar.
Sedativ vositalar.
Antidepressantlar,
psixostimulyatorlar,
litiy tuzlari, nootrop
vositalar.

Neyroleptiklarning umumiy va kiyosiy tasnifi, ta'sir mexanizmlari. Mumkin bo'lgan qo'shimcha ta'sirlari. Qo'llashga ko'rsatma va ta'qiqlar. Neyroleptiklarga retseptlar yozish. Trankvilizatorlar va sedativ moddalarning neyroleptiklardan farki, umumiy tasnifi. Trankvilizatsiya qiluvchi, muskulni bo'shashtiruvchi va tirishishga qarshi sedativ ta'sirlari. Qo'shimcha natijalari. Trankvilizatorlar, sedativ moddalarga retseptlar

yoʻzish. Antidepressantlarning umumiy va kiyosiy tasnifi, taʼsir mexanizmlari. Mumkin boʻlgan qoʻshimcha taʼsirlari. Qoʻllashga koʻrsatma va taʼqiqqlar. Depressiyaga qarshi ishlatiladigan, litiy tuzlariga retseptlar yoʻzish. Psixostimulyator, nootrop va analeptik moddalarning oliy asab sistemasiga, nafas olishiga va yurak qon-tomir sistemasiga umumiy taʼsirining asoslari va negizlari. Qoʻshimcha natijalari. Qoʻllashga koʻrsatma. Asabni stimullovchi, nootrop moddalar va analeptiklarga retseptlar yoʻzish.

6 Analeptiklar. Nafas aʼzolari faoliyatiga taʼsir etuvchi vositalar. Hazm faoliyatiga taʼsir etuvchi dorilar.

Bevosita uzunchoq miyaga taʼsir etib, nafas markazi va yurak-qon tomirlar xarakatlantiruvchi markazlarni qoʻzgʻatuvchi moddalar. Ishlatilishi. Qoʻchimcha taʼsirlari. Nojuya taʼsirlari. Nafas analeptiklariga retseptlar yoʻzish. CHaqoloqlarda surfaktant etishmovchiligi. Glyukokortikoidlarning alveolalar retseptorlariga taʼsiri. N-xolinomimetik va analeptik guruxlardagi preparatlarning nafas olishiga qoʻzgatuvchi taʼsirining asosiy mexanizmlari va nisbiy tavsifi. Yutalga qarshi preparatlarning qoʻllanishi. Taʼsir mexanizmlari. Balgʻam koʻchiruvchi preparatlarning taʼsir mexanizmlari. Bronxolitik moddalarni nisbiy baxolash. Upka shishlarida ishlatiladigan moddalar taʼsir mexanizmlari. Bu guruxga kiradigan preparatlarni qoʻllashga va taʼqiqqlashga koʻrsatma. Nafas olish organlari vazifalariga taʼsir qiluvchi dorilarga retseptlar yoʻzish. Ishtahaga taʼsir etuvchi vositalar. Meʼda bezi faoliyati buzilganda qoʻllaniladigan vositalar. Antatsid vositalar. Oshqozon osti bezining faoliyatiga taʼsir etuvchi vositalar. Qustiruvchi va qusishga qarshi vositalar. Ichak peristaltikasiga taʼsir etuvchi vositalar. Surgi vositalar. Ularning

tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, pediatriyadagi ahamiyati. O't-safro hosil bo'lishiga va ajralishga ta'sir etuvchi vositalar. Gepatoprotektorlar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, pediatriyadagi ahamiyati.

VI- SEMESTR UCHUN

- 7 Kardiotonik va antianginal vositalar. YUrak glikozidlari. Noglikozid tuzilishli kardiotonik vositalar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati. Angishvonagul (digitalis) preparatlaridan zaharlanish. Unda ishlatiladigan dori vositalari hamda bajariladigan chora-tadbirlar. Koronar qon aylanishi etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalar. Antianginal vositalar. Kardioprotektorlar. Miokard infarktini davolashda qo'llaniladigan dori vositalar.
- 8 Aritmiyaga qarshi vositalar. Gipotenziv va gipertenziv vositalar. Aritmiyaga qarshi moddalar. Aritmiyaga qarshi moddalarning tasnifiga tuxtalib utiladi. Taxiaritmiya va ekstrasistoliyada ishlatiladigan moddalar. Xujayra membranasini stabilizatsiya qiluvchi moddalarning asosiy xossalari (avtomatizm, o'tkazuvchanlik, effektiv refraktor davriga ta'siri). Beta-adrenoblokatorlar va kalsiy antagonistlarining aritmiyaga ta'siri. Xususiyatlari. Ishlatilishi. Qo'shimcha natijalari. YUrak o'tkazuvchi sistemasini susaytirishda ishlatiladigan moddalar (beta-adrenoblokatorlar). Bradiaritmiyada ishlatiladigan moddalar (M-xolinoblokatorlar, beta-adrenomimetiklar). Antigipertenziv dorilar. Xar xil tuzilishga ega gipertenziyaga qarshi moddalarning ta'sir mexanizmi va ta'sir qilish nuqtasi, tasnifi. Ularning nisbiy tavsifi. Xafaqon

- kasalligi, xafaqonlik xurujlari, boshqariladigan gipotoniya, qon aylanishining periferik mexanizmlariga ega gipotenziv moddalarning kombinatsiyalashgan xolda qo'llash, qo'shimcha ta'sirlari va ularni bartaraf etish.
- 9 Siydik xaydovchi vositalar. Miometriy tarangligi va qisqaruvchanligiga ta'sir etuvchi vositalar. Qon tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.
- Siydik xaydovchi dorilar. Buyrak nefronlariga to'g'ri ta'sir etuvchi siydik xaydovchi moddalarning ta'sir mexanizmi ko'riladi. Ularning nisbiy tavsifi va baxolash. Aldosteron antagonistlari, ularni qon balansiga ta'siri. Osmotik diuretiklarning ta'sir mexanizmi. Siydik xaydovchi moddalarni qo'llanilishi. Preparatlarni kombinatsiyalash prinsiplari. Qo'shimcha ta'sirlari. Eritropoezni stimullovchi vositalar. Leykopoezni stimullovchi vositalar. Trombotsitlar agregatsiyasi, qon ivishi va fibrinolizga ta'sir etuvchi dori vositalar. Trombozlarni davolash va oldini olish uchun qo'llaniladigan dori vositalar: antiagregantlar, bevosita va bilvosita antikoagulyantlar, fibrinolitiklar. Gemostatiklar. Qon ivishini oshiruvchi vositalar. Antifibrinolitik dori vositalar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar, tibbiyotdagi ahamiyati.
- 10 Moddalar almashinuviga ta'sir etuvchi vositalar. Vitamin preparatlar. Ateroskleroz va padagraqa qarshi vositalar. YAllig'lanish va allergiyaga qarshi vositalar.
- Endokrinologiyani xozirgi xolati xakida bir necha ma'lumotlar taxlil qilinadi. Gormonlarning olinish manbalari. Biologik standartlashtirishni umumiy prinsiplari. Gipofiz gormon preparatlari. Gipofiz oldingi bulagi gormonlarining boshka endokrin bezlari vazifalariga ta'siri. Gipofiz orka bo'limi gormonlarining miometriyga ta'siri. Kalkonsimon bez gormonlarini moddalar almashinuviga ta'siri. Qo'llanilishi. Antiteroid moddalar. Qo'llanilishi va qo'shimcha ta'siri. Paratireoidining fosfor va kalsiy almashinuviga

ta'siri. Oshqozon osti bezi gormonlari. L. V.Sobolev ishlarining ahamiyati. Insulinning olinishi (F. Beting, K. Vest). Insulin preparatlarini moddalar almashinuviga ta'siri. Peroral berish uchun sintetik gipoglikemik moddalarni ta'sir mexanizmi. Gipoglikemik komani davolash. Tuxumdonning estrogen va gestagen preparatlarini kurib chiqish. Ularning kimyoviy tuzilishi va fiziologik ahamiyati. Estrogen va gestagenlarning terapevtik qo'llanilishi. Ichish uchun uruglanishga qarshi modda sifatida ishlatilishi. Androgenlarning organizmiga ta'siri. Qo'llanishga ko'rsatma va qo'shimcha ta'sirlari. Oqsil almashinuviga anabolik steroidlarning ta'siri, ishlatilishi. Ko'rsatma va takik, qo'shimcha ta'siri. Buyrak usti bezining gormonlari tavsifi. Uglevod, oqsil, tuz, suv va pigment almashinuviga mineralokortikoidlarning asosiy ta'siri. Glyukokortikoidlarning asosiy ta'siri. Glyukokortikoidlarning yallig'lanishga qarshi, allergiga qarshi xossalari, qo'llanilishi. Asoratlari. Vitaminlar. Suvda eriydigan vitaminlarning modda almashinuvidagi ahamiyati. Ularning uglevod, yog', oqsil almashinuviga ta'siri, oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida qaytarishi keltiriladi, asab, yurak, qon-tomir sistemasiga, oshqozon ichak yo'liga, qon aylanishiga, epitelial to'qimalar xolatiga va regeneratsiyasiga ta'siri. Preparatlarning qo'llanilishiga ko'rsatma. YOg'di eruvchi vitamin preparatlari. Ta'sir mexanizmi va ishlatilishi. Aterosklerozga qarshi moddalar tasnifi. Xolesterin va lipoproteinlar almashinuviga ta'siri. Ishlatilishi va qo'shimcha natijalari. Steroid va nosteroid yallig'lanish va allergiyaga qarshi moddalarning mumkin bo'lgan ta'siri va tasnifi. Gistamin va gistaminga

- 11 Antiseptik va dezinfeksiyalovchi moddalar.
Sulfanilamid moddalar.
Mikroblarga qarshi tuzilishi turlicha bo'lgan sintetik moddalar.
Ximiyaterapiyaning asosiy negizlari.
Antibiotiklar.

qarshi moddalar ta'sir mexanizmi. Qo'llashga ko'rsatma va ta'qiqlar. Qo'shimcha ta'sirlari. YAllig'lanishga, allergiyaga va gistaminga qarshi moddalarning asoratlari.

Antiseptik va dezinfeksiya to'g'risida tushuncha yoritiladi. Bu muammolarni kurib chiqishda Vatanimiz olimlarining faoliyati. Nitrofuran xosilalari, aromatik birikmalar, metallar, galogenlar, alifatik moddalar, buyoklarning maxalliy va rezorbtiv, zaxarli ta'sirlari tasnifi. Ularga antidot terapiya. Antiseptik va dezinfeksiyalovchi moddalarni qo'llash negizlari. Sulfanilamid preparatlarning ta'siri va bu ta'sirning kimyoviy strukturasi bog'liqligi keltiriladi. Bakteriyalarga qarshi ta'sirining davomiyligi va preparatlarni miqdorlash. Sulfanilamidlarni trimetaprim bilan birgalikda ishlatilishi. Naftiridin, 8-oksixinolin, nitrofuran xosilalari. Ishlatishga ko'rsatma va qo'shimcha natijalari. Asosiy va rezerv silga qarshi moddalarga tuxtalib utiladi. Ularning bakteriyaga qarshi ta'siri va spektri. Surilish, taksimlanishi va chikarilishi. Qo'shimcha ta'siri va ishlatilishidagi xususiyatlari. Kombinatsiyalashgan terapiya prinsiplari. Ximioterapiyaning asosiy prinsiplari taxlil qilinadi. Antibioz muammosini o'rganish. L. Paster, N. I. Mechnikov, A. Fleming, G. Fleri, E. Cheyn, Z. V. Ermoleva, S. Vaksman, G. F. Gauzerlarning antibiotiklarni olishdagi xizmatlari. Antibiotiklarni tasnifi, asosiy ta'sir qilishi mexanizmlari. Barcha gurux (beta-laktam, sefalosporin, makrolid, tetratsiklin, aminoglikozid, peptid) **Al-Farabi Kazakh National University (QS-163)** antibiotiklarning tavsifi, asosiy va rezervdagi antibiotiklar xakida tushuncha. Terapevtik kulanilishi. Asoratalari va ularni oldini olish.

12 Silga, zaxmga, virusga qarshi vositalar. Protozoolarga, zamburug'larga, gijjalarga qarshi vositalar.

Silga qarshi asosiy va rezerv dorilar, ularning ishlatilishi, kimyoviy tavsifi, nojuya ta'sirlari. Zaxmga qarshi moddalar. Ta'sir qilishi va ishlatilishi. Asoratlari. Viruslarga qarshi moddalar. **Atsiklovir, neyraminidaza ingibitorlari, gepatit C va B ga qarshi preparatlar, OITSGa qarshi preparatlar. Al-Farabi Kazakh National University (QS-163).** Interferonning biologik ahamiyati va xossalari. Bezgakka qarshi kurash yutuklari talkin qilinadi. Bezgakning xar xil turdagi plazmodiylarga preparatlarning ta'sir yo'nalishlari, bezgakni davolash prinsiplari va profilaktikasi. Amyobalarga qarshi moddalar. Amyobalarni joylashishiga bog'lik xolda ular ta'sirining xususiyatlari. Amebiazda tetratsiklinning qo'llanilishi. Lyambliozda qo'llanadigan moddalar. Toksoplazmozda va leishmaniozda ishlatiladigan moddalar. Qo'llanilishi va ta'qiqlash. Zamburug'larga krashi moddalar. Ta'sir spektri, ishlatilishi. Degelmintizatsiyaning ahamiyati va gelmintoz asoratlari. Preparatlarning tasnifi va ta'sir mexanizmi. Farmakodinamikasi va ishlatilishi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular:

T.t.
№№

Amaliy mashg'ulot
mavzusi

V- SEMESTR UCHUN

- 1 Retsepturaning UASH tayyorlashdagi ahamiyati. Retsept va uning tuzilishi. **Dorilarning halqaro patentlanmagan nomi. Al-Farabi Kazakh National University (QS-163).** Kukun dori shakllariga retsept yozish.
- 2 Qattiq dori shakllari. Tabletkalar, kapsula, draje, karamel va boshqa qattiq dori vositalariga retsept yozish.
- 3 Suyuq dori shakllari. Eritma, damlama, qaynatma, emulsiyalar, tomchilar, tindirma, ekstraktlar, aralashmalarga retsept yozish.
- 4 YUmshoq dori shakllari. In'eksiya uchun dorilar. Surtma, pasta,

- shamchalar, linimentlarga, in'eksiya uchun dorilarga retsept yozish.
- 5 Umumiy farmakologiya. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi.
 - 6 Afferent nerv tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.
 - 7 Xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar.
 - 8 Adrenoretseptorlarni ta'sir etuvchi vositalar.
 - 9 Narkoz vositalari. Etil spirti.
 - 10 Uxlatuvchi vositalar. Tutqanoqqa qarshi vositalar. Parkinsonizmga qarshi vositalar.
 - 11 Analgetiklar.
 - 12 Neyroleptiklar. Trankvilizatorlar. Sedativ vositalar.
 - 13 Antidepressantlar, psixostimulyatorlar vositalar.
 - 14 Litiy tuzlari. Nootrop vositalar. Analeptiklar.
 - 15 Nafas a'zolari faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar.

VI- SEMESTR UCHUN

- 16 Me'da ichak tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.
- 17 Kardiotonik vositalari.
- 18 Antiaritmik vositalar. Toj tomirlar etishmovchiligida ishlatiladigan vositalar.
- 19 Gipotenziv vositalar. Gipertenziv vositalar.
- 20 Diuretik vositalar. Bachadon mushaklariga ta'sir etuvchi vositalar.
- 21 Qon tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.
- 22 Gormonal preparatlar.
- 23 Suvda va yog'da eriydigan vitamin preparatlari.
- 24 YAllig'lanishga, allergiyaga va aterosklerozga qarshi vositalar.
- 25 Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar. Sulfanilamid preparatlari. Kimyoviy tuzilishi xar xil mikroblarga qarshi vositalar.
- 26 Antibiotiklar. Ximioterapiyaning asosiy mezonlari va talablari.
- 27 Silga qarshi vositalar. Viruslarga (atsiklovir, neyraminidaza ingibitorlari, gepatit C va B ga qarshi preparatlar, OITSGa qarshi preparatlar) Al-Farabi Kazakh National University (QS-163) va zahmga qarshi vositalar.
- 28 Sodda mikroorganizmlarga ta'sir etuvchi vositalar.
- 29 Gijjalarga qarshi vositalar.
- 30 Xavfli o'smalarga qarshi vositalar.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar

Muayyan patologik holatlarda dori vositalarini to'g'ri tanlay bilish, turli farmakoterapevtik guruhlardagi dori vositalariga retsept yozish, dori vositalarining xalqaro va tijoriy nomlariga ko'ra turli tasniflarga mansubligini ajrata olish, patologik holatlarda dori vositalarning dori vositalarining dozasini to'g'ri hisoblash, dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari rivojlanganda ularni bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan ko'nikmalarga ega bo'lish, dori vositalarining shakliga ko'ra ularni qo'llash usullarini bilish orqali patologik jarayonlarni tahlil qiladi va xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: o'quv amaliyoti rejalashtirilmagan.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Farmakologiya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- grafik organayzerlarni mustaqil tuzish va ular yordamida bilimlarni mustahkamlash;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- grafik organayzerlarni mustaqil tuzish va ular yordamida bilimlarni

mustahkamlash

-ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida casestudy) echish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Farmakologiya moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan

T.t.

MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI

№№

- 1 Nikotinizm va uning asoratlari.
- 2 Nikotinizmning o'smirlar va ayollar organizmiga ta'siri.
- 3 Alkogolizm va uning asoratlari.
- 4 Alkogolizmning homilaga ta'siri.
- 5 Narkomaniya va uning asoratlari.
- 6 Parkinson kasalligini davolashda ishlatiladigan dori vositalar.
- 7 Epilepsiyaga qarshi dori vositalari.
- 8 Psixostimulyatorlarning farmakologik xususiyatlari.
- 9 Afferent innervatsiyaga ta'sir etuvchi moddalar.
- 10 Nonarkotik analgetiklarning boshqa dorilar bilan nomutanosibliigi.
- 11 Trankvilizatorlar.
- 12 Neyroleptiklarning boshqa dorilar bilan nomutanosibliigi.
- 13 MNT faoliyatini susaytiruvchi, tinchlantiruvchi dorivor o'simliklar.
- 14 Adrenergik va antiadrenergik moddalarning boshqa dorilar bilan nomutanosibliigi.
- 15 Giyohvandlikning yangi formalari.
- 16 Dorilarni organizmga qayta-qayta yuborishda kuzatiladigan o'zgarishlar.
- 17 MNT faoliyatini stimullovchi dorivor o'simliklar.
- 18 Odam organizmi tonusini kuchaytiruvchi dori vositalari.
- 19 Dorilarning o'zaro ta'siri.
- 20 Aritmiyani davolashda ishlatiladigan dori vositalari.
- 21 Dorilar ta'sirida yuzaga kelgan gepatitlarni davolashda qo'llaniladigan gepatoprotektor vositalar.
- 22 Bezgakka qarshi dori vositalarini qo'llash tamoyillari.
- 23 Vitaminlar.
- 24 Xavfli o'smalarni davolashda ishlatiladigan zamonaviy target preparatlar. Monoklonal antitanachalar. Proteinkinaza ingibitorlari.
